

**Jahon banki ishtirokidagi “Milliy irrigatsiya tizimlarini yaxshilash va
energiya samaradorligini oshirish” loyihasi bo'yicha
MA'LUMOT**

1. Tashabbuskor va loyiha nomi – O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Jahon banki ishtirokidagi “Milliy irrigatsiya tizimlarini yaxshilash va energiya samaradorligini oshirish” loyihasi.

2. Loyihani amalga oshirish uchun asos – Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 31 yanvardagi 53-son qarori 6-ilovasi, Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi yig'ilishining 81-son bayoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 1 avgustdagi PQ-242-son qarori.

3. Loyiha maqsadi – Loyiha tarkibida jami 8 ta kanalda jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida “Quuanish jarma” (34,2 km) kanali, Namangan viloyatida “Shimoliy Farg'ona” (23,25 km) magistral kanali, Qashqadaryo viloyatida “Paxtaobod” (54,1 km) kanali, Surxondaryo viloyatida “Zang” (87,7 km) kanali, Buxoro viloyatida “Shoxrud”, “Shimoliy-g'arbiy tarmoq”, “Xayrabod” va “Ramiton” (59,8 km) kanallari jami 259 km kanallarni rekonstruksiya qilish orqali hududlarda mavjud 232,35 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlariga barqaror suv yetkazib berish, foydalanishdan chiqib ketgan 21 ming gektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritish hamda kanallarning suv o'tkazish qobiliyatini 20–30 foizga (o'rtacha 65 dan 90 gacha) yetkazish.

4. Loyihaning amalga oshirish muddati – 2025–2030 yillar.

5. Loyiha amalga oshiriladigan hududlar – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari.

6. Loyihaning umumiy qiymati – 240,5 mln. dollar, shundan: Jahon banki ulushi – 200 mln. dollar; O'zbekiston ulushi – 40,5 mln. dollar.

7. Loyihadan kutilayotgan natijalar:

Loyiha doirasida 5 ta hududda jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 23,4 ming gektar, Namangan viloyatida 16,5 ming gektar, Qashqadaryo viloyatida 26,9 ming gektar, Surxondaryo viloyatida 72,5 ming gektar, Buxoro viloyatida 93,0 ming gektar, jami 232,3 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlariga barqaror suv yetkazib beriladi, foydalanishdan chiqib ketgan 21 ming gektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritiladi hamda kanallarning suv o'tkazish quvvati 20–30 foizga (o'rtacha 65 dan 90 gacha) oshiriladi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida 62,1 mln. m³ (2,65 mln. kVt/s), Namangan viloyatida 67,52 mln. m³ (25,06 mln. kVt/s), Qashqadaryo viloyatida 22,07 mln. m³, Surxondaryo viloyatida 152,28 mln. m³ (71,98 mln. kVt/s), Buxoro viloyatida 235,79 mln. m³ (65,86 mln. kVt/s), hududlarda yiliga jami 539,8 mln. m³ suv hamda 165,55 mln. kVt/s. elektr energiyasi tejaladi.

Joriy holati – Loyihaning TIAsi Hukumat Komissiyasi (09.04.2025y 81-son bayon) tomonidan tasdiqlangan va Loyiha doirasida 2025-yil 11-iyul kuni Jahon banki bilan 7765-UZ-sonli “Moliyaviy bitim” imzolangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-avgustdagi “Milliy irrigatsiya tizimlarini yaxshilash va energiya samaradorligini oshirish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-242-sonli qarori qabul qilingan.

Bugungi kunda Loyiha doirasida NIEEIP/ICB/1-son “Quuanish jarma kanalini rekonstruksiya qilish” hamda NIEEIP/CON/1-son “Xalqaro konsultant kompaniyasini jalb qilish” paketlari bo‘yicha tender hujjatlari ishlab chiqilib, ular buyicha Jahon banki bilan muvofiklashtirish jarayoni amalga oshirildi.

NIEEIP/CON/1 paketi bo‘yicha tender 2025-yil 2-oktabr kuni e‘lon qilingan bo‘lib, takliflarni qabul qilishning yakuniy sanasi – 2025-yil 11-noyabr etib belgilangan. Belgilangan muddatda barcha ishtirokchilardan takliflar qabul qilindi. Hozirgi vaqtda kelib tushgan takliflarni baholash ishlari olib borilmoqda hamda eng munosib va malakali ishtirokchilar bilan keyingi jarayond doirasida nazarda tutilgan ishlarni amalga oshirish maqsadida qisqa ro‘yxat shakllantirilmoqda.

Shuningdek, NIEEIP/ICB/1 paketi bo‘yicha takliflarni taqdim etish uchun tender savdolari 2025-yil 6-noyabrda e‘lon berilgan.